

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 7 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Abduxamidov Islombek

O‘ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT
MUHOJIRLIGI TARIXI 10-18

Фарманова Гульнара Комилевна

ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ
УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ 19-24

Индиаминова Шоира Амриддиновна

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО
СРЕДНЕВЕКОВЬЯ 25-29

Mirzakhmdamova Dildora Zafarovna

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA‘MINLASHDA FARG‘ONA VILOYATIDA
IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH 30-35

Ismoilova Parvina

TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN
KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI) 36-41

Jomurodov Lazizbek Islomovich

O‘ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH
JARAYONI 42-46

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ
РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ 47-54

Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna

VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO‘RSATKICHINI OSHIRISHNI
TADQIQ QILISH 55-61

Mamadaliyev Ulug‘bek

JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI 62-69

Jalilov Arslon Xoshimovich

ТЕМИР YO‘L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI
BAHOLASH 70-75

Kamchibekov Farxod Olimjonovich

O‘ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS
IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI 76-82

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Djurayev Lukmon Narzullaevich

ZAMONAVIY O‘ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING
TRANSFORMATSIYALASHUVI 83-87

<i>Norkulov Ubaydulla Umarovich</i> MAHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI KUCHAYTIRISHNING IJTIMOYIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI	88-92
<i>Пулатов Шердор Нематёнович</i> ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАВАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ	93-105
<i>Yusupov Murodali Sunnatovich</i> O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TIZIMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOYIY- FALSAFIY MASALALARI	106-110
<i>Suleymanov Sarvar Sunatullayevich</i> O'ZBEKISTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEXNOLOGIYALARNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI	111-116
<i>Shernazarov Ravshan Avazovich</i> SIYOSIY E'TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI	117-122
<i>Nasrullayev Ravshanxon Sirojxonovich</i> VATANPARVARLIKNI IJTIMOYIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI.....	123-126
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Matkarimova Salomat Ko'ziyevna</i> ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK	127-133
<i>Tairova Maxfuza Abdusattorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAMLAKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI	134-139
<i>Rahimova Maftuna</i> LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA	140-143
<i>Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna</i> O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	144-147
<i>Xursanov Nurislom Iskandarovich</i> O'ZBEK FRAZEOLGIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI	148-154
<i>Umarov Umidjon Akram o'g'li</i> RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI	155-159
<i>Облоқулова Шахло Асрор қизи</i> ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ	160-164
<i>Nazarova Lola Maqsadilla qizi</i> KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI	165-170
<i>Umarxonova Dilafruz Murotjonovna</i> “MARDLIK” VA “QO'RQOQLIK” KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	171-175
<i>Yunusova Ganjina Rustamovna</i> NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI	176-180
<i>Мусаев Файзулло Оманович</i> АРАБ ДУНЁСИДА “МАСАЛ” ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ	181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB" ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i> TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI	197-201
<i>Икромова Нугина Ойбековна</i> ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ	202-207
<i>Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi</i> NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> "NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIY POETIKA	214-221
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Саидов Ақром Акмалович</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i> TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	231-237
<i>Умурзақов Жасурбек Қосимжанович</i> КРИПТО-АКТИВЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	238-242
<i>Nurmatatova Noila Doniyorovna</i> KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQUISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i> FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i> FUQAROLIK-HUQUQIY ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	268-275
<i>Mukumov Bobur</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA TOVAR BELGILARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i> INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKISTON	

RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O’RNI	283-289
<i>Калимбетов Ерназар</i> ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ	290-297
<i>Ibrohimov Azimjon Abdumotamin o'g'li</i> KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAHSLAR JAVOBGARLIGI	298-306
<i>Ходжаева Ширин</i> ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ	307-317
<i>Маматкулов Камолiddин Галабаевич</i> ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	318-323
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Nazarova Ra'no Sidiq qizi</i> HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	324-329
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI	330-341
<i>Hamidova Laylo Kamildjonovna</i> OLIV PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	342-346
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich</i> MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI	347-357
<i>Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi</i> GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR	358-363
<i>Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li</i> INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGLIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA	364-369
<i>Jalilov Umidjon Jahongirovich</i> OG'IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI	370-375
<i>Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi</i> OLIV TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI	376-381

Received: 30 June 2024
Accepted: 5 July 2024
Published: 15 July 2024

Article / Original Paper

INDIVIDUAL DEVELOPMENT AS AN INTEGRAL PART OF TEACHING PROFESSIONAL EDUCATION

Kenjaboyev Sharifjon Shukhrat ugli

Namangan State University, Faculty of World Languages

Teacher of the department of foreign languages in clear and natural directions

Abstract. This article discusses the fact that individual-professional development is a continuous process, its role in the future activity of a teacher, the description of professional-pedagogical activity as a whole system, as well as the education of the pedagogic profession.

Key words and phrases: individual professional development, student, activity, ability, reflection, professional motivation, professional competence, professional quality, professional qualification, professional description.

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGLIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA

Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li

Namangan davlat universiteti, Jahon tillari fakulteti

Aniq va tabiiy yo'nalishlarda chet tillari kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada individual-kasbiy rivojlanishi uzkuksiz jarayon ekanligi, uning bo'lajak o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni, kasbiy-pedagogik faoliyatning yaxlit tizim sifatida tavsifi, shuningdek pedagogik kasbi tarbiyasi xususida fikr yuritilgan.

Tayanch so'z va iboralar: individual kasbiy rivojlanish, talaba, faoliyat, qobiliyat, refleksiya, kasbiy motivatsiya, kasbiy kompetentlik, kasbiy sifat, kasbiy malaka, kasb tavsifnomasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N54>

Kirish. Pedagog mutaxassisligi – pedagogik ixtisoslik doirasidagi muayyan faoliyat turi hisoblanib, aniq mehnat predmeti va mutaxassisning aniq funksiyasi bilan bog'liqlikka ega. Pedagogik malaka bu – mutaxassisning ma'lum turdagi vazifalarni hal etishdagi imkoniyatlarini ko'rsatuvchi kasbiy-pedagogik tayyorlanganlik darajasi va ko'rinishi hisoblanadi.

Individual-kasbiy rivojlanish pedagogik kasbi tarbiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. "Pedagogik kasbi tarbiyasi" tushunchasi natijasida "bo'lajak pedagog tomonidan kasbiy qadriyatlarni va ideallarni egallash, uning ma'naviy ehtiyojlarini va qiziqishlarini, ijtimoiy qimmatga ega motivlarni kengaytirish, hissiy, axloqiy va estetik tuyg'ularni, empatik qobiliyatlarni boyitish, amaliy pedagogik ko'nikma, malaka, odatlarni, o'z-o'zini refleksiya qilish tajribasini egallash kabi shaxs xususiyatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan tadrijiy dialektik harakat" [8] sifatida tavsif qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bo'lajak o'qituvchilarning individual-kasbiy

rivojlanishi uzkuksiz jarayon hisoblanadi. Pedagogik faoliyat domiy rivojlanib borayotgan jamiyat bilan hamnafas ravishda rivojlanadi. Faoliyat mazmuni ham jamiyatdagi shaxslarning talab va ehtiyojlariga asoslanadi. Ilmiy terminologiya sifatida bu „ijtimoiy buyurtma“ sifatida yuritiladi. Pedagog olim, akademik X.Ibragimov pedagog faoliyatni quyidagicha tavsiflagan: “mazkur kasb doirasidagi, ta’lim natijasida egallangan bilim, ko’nikma va malakalar yig’indisini tavsif etuvchi hamda ularning qo’yilishi va o’zlashtirayotgan malakasiga muvofiq muayyan kasbiy-pedagogik vazifalarni hal etilishini ta’minlovchi faoliyat turi”. [5;7-12-b]

Kasbiy-pedagogik faoliyat yaxlit tizim sifatida bir qancha tarkibiy qismlarni o’zida uyg’unlashtiradi. I.P.Podlasiy kasbiy salohiyatning tuzilishiga doir tasnif ishlab chiqqan. Mazkur tasnifga asosan pedagogik olim N.M.Egamberdiyeva pedagogik ta’limdagi kasbiy yetuklik (professionallashuv), ijtimoiylashuv, insonparvarlashuv va madaniy ijodkorlikning zamonaviy yo’nalishlariga muvofiq keluvchi tarkibiy qismlarni ajratib ko’rsatadi. Mazkur tarkibiy qism quyida keltirib o’tilgan:

- pedagogik madaniyat;
- pedagog ijodkorligi;
- pedagogik aql-idrok;
- chuqur kasbiy bilimga egalik;
- individual faoliyat uslubiga egalik;
- ijodiy tashabbusning rivojlanishi;
- individual faoliyat;
- insonparvarlikka yo’naltirilganlik;
- ijtimoiy faollik.[4]

Har qanday kasbiy faoliyat zaruriy kasbiy sifatlarni shakllantirish tizimi asosida amalga oshadi va mazkur faoliyat belgilangan sifatlar majmuasini talab etadi. A.V.Karpov o’z ilmiy tadqiqotida “kasbiy zaruriy sifat” [7;168] tushunchasiga quyidagicha izoh bergan: “belgilangan me’yor darajasida amalga oshirish uchun yetarli va zarur faoliyat subyektining individual xususiyatidir”. A.V.Karpov kasbiy yetuklikning tuzilishini tadqiq etib, quyidagicha individual sifatlar guruhini shakllantirgan:

- 1) absolyut kasbiy zaruriy sifatlar – o’rtacha darajadagi faoliyatni bajarish uchun zarur xususiyat;
- 2) o’zida faoliyatning yuqori va sifat ko’rsatkichlariga erishish imkoniyatini aniqlab beruvchi muhim kasbiy zaruriy sifatlar;
- 3) u yoki bu faoliyatni amalga oshirishga motivatsion tayyorlik.

Muhokama. Bo’lajak o’qituvchilarda individual-kasbiy rivojlanish pedagogik madaniyatning ajralmas qismi sifatida, kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarining mavjud bo’lishini taqozo etadi. Pedagog olim A.J.Ajibaeva kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarini 4 guruhga ajratgan.[1;24-b] Quyidagi jadvalda kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlari keltirib o’tilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

KASBIY AHAMIYATLI SHAXS SIFATLARI VA ULARNING MAZMUNI

№	Kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlari	Mazmuni
---	-----------------------------------	---------

1	Shaxsga yo'nalganlik	E'tiqod, ijtimoiy faollik, fuqarolik his-tuyg'usining mavjudligi
2	Kasbiy-axloqiy sifatlar	Insonparvarlik, jamoaviylik, adolat, mehribonlik, haqiqatparvarlik, samimiylik, talabchanlik, bolalarga nisbatan mehr va hurmat, oliyjanoblilik, xolislik
3	Pedagogik faoliyatga munosabat	Vijdonlilik, javobgarlik tuyg'usi, fidokorlik, berilib ishlay olish va o'z pedagogik faoliyatidan qoniqish hissi, uni hayotining mazmuniga aylantira olish
4	Qiziqishlar va ma'naviy ehtiyojlar	Bilishga oid faollik, tafakkurning kengligi va teranligi, estetik madaniyat, qiziqishlarning va ma'naviy ehtiyojlarning ko'p qirraliligi, yoqtirgan ijodiy ishning mavjud bo'lishi, tashqi ko'rinish va nutq madaniyati

Pedagog olim, akademik X.Ibragimov esa bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy sifatlarini uch guruhga ajratgan holda quyidagicha tavsif etadi (2-jadvalga qarang):

2-jadval

KASBIY AHAMIYATLI SHAXS VA UNING TAVSIFI

№	Kasbiy ahamiyatli shaxs sifatleri	Tavsifi
1	Faoliyatning mazkur turiga kompetentlikni aks ettiruvchi psixologik tavsif	kasbiy faoliyatdagi psixik jarayonlar (idrok, xotira, tasavvur, fikrlash), psixik holatlar (charchoq, apatiya, stress, tushkunlik), anglash holati sifatidagi diqqat, emotsional (indeffirentlik, vazminlik) va irodaviy (barqarorlik, ketma-ketlik, ta'sirchanlik)ga ta'sir etuvchi talablar
2	Shaxs sifatida pedagogik faoliyatni rivojlantirishga doir psixologik-pedagogik sifatlar	psixoanalitik sifatlar: o'z-o'zini nazorat qilish, o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lish, o'z xatti-harakatlarini baholay olish, bundan tashqari, barqarorlik sifatleri: jismoniy chiniqqanlik, o'z his-tuyg'ularini boshqara olish, o'z-o'zini tinglay olish
3	Shaxsiy-kasbiy qiyofani tarkib toptirishga yo'naltirilgan psixologik-pedagogik sifatlar	kommunikativlik (insonlar bilan samarali muloqotga kirishish), hamdardlik (kishilar bilan dardlashish, ularning g'am-anduhlariga sherik bo'lish), vizuallik (shaxsning tashqi ko'rinishi), nutqning ta'sirchanligi (fikrlarni tinglay olish va so'ziga boshqalarni ishonтира bilish)

Ma'lumki, bo'lajak o'qituvchilarning individual-kasbiy rivojlanishi ma'lum pedagogik shart-sharoitlarni taqozo etadi. Ilmiy adabiyotlar bazasida mazkur masalaga doir tadqiqot ishlarini ham kuzatish mumkin. Pedagog olim A.Muslimov bo'lajak o'qituvchilar kasbiy sifatlarining shakllanishiga yordam beruvchi muhim pedagogik shart-sharoitlarni keltirib o'tgan:

1. Moddiy-texnik shart-sharoitlar (o'quv binolari, o'quv auditoriyalari, o'quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televideniye, kompyuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, laboratoriya asbob-uskunalari, magnitofonlar (audio, video), trenajyorlar, kinoproektorlar, diaproektorlar, texnik vositalar majmuining mavjudligi va hokazolar).

2. O'quv-metodik meyoriy hujjatlar (davlat ta'lim standarti, namunaviy o'quv rejalar, ishchi o'quv rejalar, namunaviy o'quv dasturlar, ishchi dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, ko'rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar).

3. Ilmiy pedagogik xodimlar salohiyati (o'qituvchilar, malakali o'quv ustalari, rahbar va texnik xodimlar).

4. Ijtimoiy hamda o'quv-texnologik muhit (o'qituvchi hamda o'quvchilar, rahbarlar hamda o'quvchilar, shuningdek o'quvchilarning o'zaro munosabatlari mazmuni, yo'nalishi, maqsadlar birligi va boshqalar).

5. Tashkiliy hamda o'quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo'lga qo'yilganligi.[6]

Pedagog olim A.I.Avazbaev kasbiy sifatlarini shakllantirish mazmunini integratsiyalashning quyidagi darajalarini keltirib o'tgan:

1. Funktsiyasiga ko'ra integratsiyalash (metodologik, kasbga yo'naltirilgan, muammolik, yaxlitlik, tizimlilik, kommunikativlik, tashkilotchilik).

2. Rivojlanish tendensiyasiga ko'ra integratsiyalash (ta'limning ustuvorligi, ta'limning demokratlashuvi, ta'limning insonparvarlashuvi, ta'limning ijtimoiylashuvi, ta'limning milliy yo'naltirilganligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilganligi, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi).

3. Yo'nalishiga ko'ra integratsiyalash (o'qituvchi obro'sini ko'tarish, ta'lim muassasini rivojlantirish, yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish, kasbiy ta'lim – fan – ishlab chiqarish integratsiyasi, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish).

4. Tiplariga ko'ra integratsiyalash (umummetodologik, umumilmiy, xususiy ilmiy, muammoli).

5. Darajasiga ko'ra integratsiyalash (yaxlitlik, didaktik sintez, fanlararo aloqadorlik).

6. Amalga oshirish darajasiga ko'ra integratsiyalash (an'anaviy va noan'anaviy).[2]

Bo'lajak o'qituvchilarda individual-kasbiy rivojlanish mazmuni bevosita pedagogik faoliyat kasbiy tavsifnomasi bilan uzviy aloqadorlikka ega. Kasbiy tavsifnoma huquqiy-me'yoriy asos sifatida qabul qilinadi. Individual-kasbiy rivojlanish har bir shaxs tomonidan mustaqil belgilanib, kasbiy identitetning rivojlanishiga turtki beradi.

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda pedagogik professiogramma (kasbiy tasnifnoma)ning ilmiy tadqiqi keng yoritilgan. Mazkur tavsifnoma dinamik xususiyatga ega bo'lib, jamiyatdagi ehtiyoj va talablarni o'z mazmunida aks ettiradi. Pedagogik professiogrammada bo'lajak pedagoglarga xos quyidagi sifatlar aks etishi lozim:

– shaxsiy xislatlar (ta'lim oluvchilarni yaxshi ko'rish, ularni sevish, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik va boshqalar);

– kasbiy-pedagogik faoliyatga doir bilimlarga egalik (ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi, anglashi, umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi va boshqalar);

– pedagogik faoliyatga xos xislatlar (zamonaviy pedagogikaga oid metodologik bilimlarni egallashi, kuzatuvchanlik, diqqat-e'tiborni taqsimlay olishi, pedagogik fantaziyaning rivojlanganligi, pedagogik taktika va hokazolar)[3];

– shaxsiy-pedagogik uddaburonlik (mashg'ulotlar uchun zarur materiallarni tanlay olishi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi, o'quv maqsadlarini rejalashtira olishi va b.)[3];

– muloqotga kirisha olish (kommunikativlik) malakasiga egalik (bolalarni o'ziga jalb etishni bilishi, bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi, bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilishi va h.k.lar);

– gnoseologik (bilish) malakalariga egalik (bolalarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay olishi, o'zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi va b.);

– ijodiy xislatlari (pedagogik mahoratni takomillashtirishga intilishi, o'quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqishi va uni amalga oshirish qobiliyati va hokazolar). [3] Shunga muvofiq tarzda hozirgi zamon pedagoglaridan o'z sohasiga doir milliy va xalqaro darajadagi o'zgarishlar, an'analar, yo'nalishlarni mustaqil o'rganish, doimiy kuzatib borish hamda o'z faoliyati mazmuniga singdirib borishni qo'shimcha qilish lozim. Misol tariqasida xalqaro baholash tadqiqotlari, uning mazmuni, funktsional vazifasi hamda uning natijalari va milliy hisobotlarini doimiy ravishda o'rganib borishi lozim bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, individual kasbiy rivojlanish shaxsning o'z kasbiy karyerasini muvaffaqiyatli amalga oshirish va kasbiy maqsadlarga erishish uchun o'z ko'nikmalari, bilimlari va tajribasini doimiy ravishda kengaytiradigan va takomillashtiradigan jarayondir. Individual kasbiy rivojlanish bu doimiy amalga oshiriluvchi jarayon bo'lib, unda inson o'z kasbiy mahoratini mustahkamlaydi, yangi ko'nikmalarga ega bo'ladi, kasbiy rivojlanishini davom ettiradi va o'z karyera maqsadlariga intiladi. Demak, bo'lajak o'qituvchilarning individual-kasbiy rivojlanishi ta'lim sohasidagi tendentsiyalar bilan uzviylikni taqozo etadi. Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar, yondashuvlar, qarashlar, ustuvorliklar individual-kasbiy rivojlanish bilan ta'sirli aloqaga ega.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ажибаева А.Ж. Реализация личностно-ориентированного подхода в профессиональном воспитании будущего учителя: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Бишкек, 2007. – С. 24.
2. Авазбаев А.И. Совершенствование подготовки учителей трудового и профессионального обучения на основе интеграции содержания учебных предметов: автореф. дисс... канд.пед. наук. – Т.: 2001. – В. 8.
3. Davletshin M.G., Jalilova S.I. Oliy maktabda ta'lim jarayoni samaradorligining psixologik tomonlari. – Т.: TDPU, 2001.
4. Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish. Monografiya. – Т.: Fan, 2009.
5. Ibragimov X. Integratsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy sifatlarni shakllantirish muammolari // "XALQ TA'LIMI" ilmiy-metodik jurnali. – Т.: 2019. – В. 7-12.
6. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: pedagogika fanlari doktori. ... diss. – Т.: 2007.

7. Профессионализм современного педагога: методика оценки уровня квалификации педагогических работников / под науч. ред. в.д. Шадрикова. – М.: Логос, 2011. – 168 с.
8. Слостёнин В.А., Чижаква Г.И. Введение в педагогическую аксиологию. – М.: Академия, 2003.
9. Obediat, M. 1997. "Language vs. Literature in English Departments in the Arab World" in English Teaching Forum.
10. Stern, S. 1991. "An Integrated Approach to Literature in ESL / EFL" in Teaching English as a Second or Foreign Language. ed. Murcia, M. Boston: Heinle & Heinle Publishers.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 7 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).